

Akademik To'lqin Bekmurotov vafot etdi



O'zbekiston ilm-fani og'ir judolikka uchradi.

Informatika, hisoblash texnikasi va avtomatlashgan boshqaruv tizimlari sohasida yirik olim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Bekmurotov To'lqin Fayziyevich 85 yoshida vafot etdi.

Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson To'lqin Bekmurotovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

Marhumning oila a'zolari va yaqinlariga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi o'z hamdardligini bildiradi.